

Noyabr, 2024-Yil

YERGA OID SUD ISHLARIDA ISBOTLASH VA DALILLARNI QO'LLASHNING
PROTSESSUAL XUSUSIYATLARI

Qarshiboyev Jasurbek Komiljon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti, Mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish usullari
mutaxassisligi magistranti.

e-mail: jasurbekqarshiboyev54@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14128523>

Annotatsiya. Mazkur tezis O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudda ko'rish bilan bog'liq dalillarni qo'llash va isbotlashga qaratilgan bo'lib, ushbu turdagi ishlarni sudda ko'rishda dalillar va isbotlashning o'ziga xos xususiyatlari va boshqa ish ko'rish turlaridan farqli jihatlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, ushbu tezisda yerga oid sud ishlarida elektron dalillar, isbotlash jarayonida sun'iy intellekt va boshqa zamonaviy texnologiyalardan foydalanish istiqbollari yoritib berildi.

Kalit so'zlar: yer nizolari, dalillarni qo'llash, isbotlash predmeti, nizolarni ko'rib chiqish, yer uchastkalari, elektron dalillar, yozma dalillar.

PROCEDURAL CHARACTERISTICS OF PROOF AND USE OF EVIDENCE IN LAND
COURT CASES

Abstract. This thesis is aimed at the use and proof of evidence related to the trial of cases arising from legal relations related to land in the legislation of the Republic of Uzbekistan, and the specific features of evidence and proof in the trial of this type of cases and other different aspects of the types of work are explained in detail. Also, this thesis highlighted the prospects of using electronic evidence, artificial intelligence and other modern technologies in the process of proof in court cases related to land.

Key words: land disputes, use of evidence, subject of proof, consideration of disputes, land plots, electronic evidence, written evidence.

ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДОКАЗАНИЯ И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
ДОКАЗАТЕЛЬСТВ В ЗЕМЕЛЬНЫХ СУДЕБНЫХ ДЕЛАХ

Аннотация. Данная дипломная работа направлена на использование и доказывание доказательств, связанных с рассмотрением дел, возникающих из правоотношений, связанных с землей, в законодательстве Республики Узбекистан, а также особенности доказательств и доказывания при рассмотрении данного вида. Подробно разъясняются дела в суде и ее отличия от других видов работы. Также в данной дипломной работе освещены перспективы использования электронных доказательств, искусственного

Noyabr, 2024-Yil

интеллекта и других современных технологий в процессе доказывания в судебных делах, связанных с землей.

Ключевые слова: земельные споры, использование доказательств, предмет доказывания, рассмотрение споров, земельные участки, электронные доказательства, письменные доказательства.

Hozirgi vaqtda jamiyatdagi tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar munosabati bilan yer fuqarolik muomalasining ekvivalent obyekti sifatida harakat qila boshladi. U asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lib, katta iqtisodiy ahamiyatga ega hisoblanmoqda. Buning isboti sifatida yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning 68-moddasi "Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin" kabi norma bilan to'ldirilganligini aytishimiz mumkin. Qolaversa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, **"Bugungi kundagi masala juda murakkab. Yer — xalqni boqayotgan mulk. Yerimizga bo'lgan munosabatni mutlaqo o'zgartirishimiz kerak. Qonunni qabul qilganimiz bilan ham buni bajaruvchi odam kerak. Bu oson emas. Joylarga yetkazuvchi odam kerak"**[1].

Qolaversa, so'nggi yillarda respublikada yer uchastkalaridan oqilona va maqsadli foydalanilishini ta'minlash, ularni muhofaza qilish, yangi yerlarni o'zlashtirish hamda qayta muomalaga kiritish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.02.2022 yildagi "Yer uchastkalaridan foydalanishda davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-138-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.06.2021 yildagi "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6243-son Farmonlari qabul qilinishi buning amaldagi isboti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida iqlim o'zgarishi salbiy ta'sirining oldini olish, qishloq xo'jaligi sohasida suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash, qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish maqsadida qo'shimcha yer islohotlarini o'tkazish g'oyasi aks ettirildi[2].

Qolaversa, ishonch bilan aytishimiz mumkinki, yerga oid nizolar yer munosabatlarini tartibga solishning muhim majmuasini, shuningdek, yer uchastkasining alohida huquqiy tabiati va

Noyabr, 2024-Yil

qiymatini hisobga olgan holda sud ishlarining eng murakkab toifalaridan biridir. Yer bilan bog'liq nizolar moddiy dunyo obyekti sifatida ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lgan yer: ba'zi jihatlarida u tabiiy resurs, tabiatning ajralmas qismi, boshqa tarafdin fuqarolik huquqidagi ba'zi istisnolardan tashqari fuqarolik muomalasining, mulk huquqi yoki boshqa mulkiy huquqlarning obyekti sifatida sifatida ko'zga tashlanadi.

Yer-huquqiy munosabatlarning murakkablashishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida mustahkamlangan yerning alohida ijtimoiy ahamiyatining ortishi, yer bilan bog'liq nizolar sonining keskin ko'payishi natijasida fuqarolarning yer bilan bog'liq huquqlari va manfaatlarini himoya qilishning alohida protsessual xususiyatlariga ega sud shaklini o'rnatish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bularning barchasi yurtimizda yer nizolarini hal qilish muammolariga yuridik fanning muayyan e'tiborini keltirib chiqaradi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan yer nizolarini ko'rib chiqishning protsessual xususiyatlarini har tomonlama o'rganish, qonunchilikni, birinchi navbatda, sudlarning qonuniyligi va adolatligini oshirish maqsadida yer bilan bog'liq nizolarni samarali hal etishga qaratilgan huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirish istiqbollarini ilmiy jihatdan tadqiq etish bilan bog'liq hisoblanadi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishning muhim tarkibiy qismi qonuniy, asosli va adolatli hal qiluv qarori qabul qilish maqsadida ko'rilayotgan ishdagi holatlar va faktlarning haqqoniyligini isbotlash masalalari hisoblanadi. Ma'lumki, sudda dalillardan faktik holatlarni belgilash maqsadida foydalaniladi. Sud biron bir fuqarolik ishini undagi mavjud holatlarni aniqlamasdan turib hal etishi mumkin emas.

Ma'lumki, dalil voqelikning haqiqiy (faktik) holatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sud ishning holatini aniqlamay turib, biron bir fuqarolik ishini mazmunan hal qila olmaydi. Sud fuqarolar va tashkilotning qonun bilan qo'riqlanadigan huquqlarini himoya qilish kabi asosiy vazifasini to'liq amalga oshirishi uchun, avvalo, da'vogar talab qilayotgan da'vosida haqiqatan ham uning huquqi mavjudligini; uning aynan nimada ifodalanishini; ma'lum bir majburiyat javobgarga tegishliligi to'g'risidagi huquq mavjud ekanligini belgilashi, ya'ni nizolashuvchining huquqiy munosabatlarini aniqlashi kerak. Biroq, huquq va majburiyat o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Ularning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi qonunda ma'lum yuridik faktlarning mavjudligi bilan bog'lanadi. Shu sababli, nizoli huquqiy munosabatlarni aniqlash uchun haqiqatda qanday yuridik faktlar sodir bo'lganligini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Noyabr, 2024-Yil

Fuqarolik protsessida ish uchun muhim bo'lgan dalillarni aniqlash borasidagi faoliyat sud orqali amalga oshiriladi va u **“dalillarni isbotlash”**, deb nomlanadi. O'z navbatida, sud tomonidan aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar **isbotlash predmeti** deb ataladi[3].

A.A.Vlasovning fikricha, fuqarolik protsessida isbotlash predmetining ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- sudda isbotlashni yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi, sud, tomonlar va ishdagi shaxslarning ish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni bilish faoliyatini maqsadga muvofiqligini kuchaytirishga xizmat qiladi;

- sudga oid bilishning doirasi va chegarasini belgilab beradi;

- ishda mavjud bo'lgan dalillarning daxldorligini aniqlash bo'yicha mezon vazifasini bajaradi.

[4]

Yerga oid nizolar bo'yicha isbotlash predmeti ishni ko'rib chiqishda sud tomonidan qo'llaniladigan yer qonunchiligi normalarining bittasi yoki qonunchilik majmui asosida shakllantiriladi. Ushbu normalarning mazmuni va ularni taqdim etishning o'ziga xos xususiyatlari ishda isbotlash predmetining o'ziga xos xususiyatlariga ta'sir qiladi.

Isbotlash predmetining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan yer qonunchiligining nisbatan o'ziga xos normalari orasida vaziyatli va alternativ normalar eng keng tarqalgan. Shunday qilib, muayyan vaziyatning xususiyatlariga qarab to'g'ridan-to'g'ri individual tartibga solish imkoniyatini ta'minlaydigan odatiy vaziyat normasi Yer kodeksining 36-moddasi 6-bandida mavjud bo'lgan norma bo'lib, unga ko'ra sud, vakolatli organ, agar yer uchastkasidan noto'g'ri ya'ni belgilanganidan boshqa maqsadlarda foydalanilganligi aniqlansa, yer uchastkasiga bo'lgan huquqni bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Qonunda yer uchastkasidan qanday foydalanish noto'g'ri deb topilishi aniq belgilanmagan, shuning uchun sud ishning holatlarini o'rganib, yer uchastkasidan foydalanish bilan bog'liq faktlarni o'rganib, mavjud vaziyat bo'yicha mustaqil ravishda xulosa chiqarishi kerak.

Vaziyat turiga asosan, Yer kodeksining 30-moddasi va Fuqarolik Kodeksining 173-moddasida ko'rsatilgan qoidalar ishlab chiqilgan bo'lib, o'zganing yer uchastkasi orqali piyoda yoki transportda o'tish, o'zganing yer uchastkasida drenaj ishlari o'tkazish, o'zganing yer uchastkasidan elektr uzatish, aloqa liniyalari va truboprovodlar, irrigatsiya, muhandislik va boshqa liniyalar hamda tarmoqlar o'tkazish va ulardan foydalanish, o'zganing yer uchastkasidan ekinzorlarni va qishloq xo'jaligi hayvonlarini sug'orish uchun suv olish, qishloq xo'jaligi hayvonlarini o'zganing yer uchastkasi orqali haydab o'tish, o'zganing yer uchastkasida ihota daraxtlari ekish va tabiatni muhofaza qilishga taalluqli boshqa obyektlar barpo etish, shuningdek

Noyabr, 2024-Yil

ko'chmas mulk egasining boshqa ehtiyojlari, agar da'vogar uchun ushbu huquqlarni servitut o'rnatmasdan amalga oshirish mumkin emasligi aniqlansa, ular asosida sud servitut berish to'g'risidagi talabni qondirishi mumkin.

Shuningdek, qonunda da'vogarning o'tish, sayohat qilish, shuningdek, boshqa ehtiyojlarini amalga oshirish imkoniyatini belgilash masalasi qanday hal qilinishini aniq ko'rsatilmagan.

Yer qonunchiligida ushbu masala bo'yicha aniq belgining yo'qligi, aslida faqat sud, agar taraflar o'rtasida tegishli nizo bo'lsa, ishning o'ziga xos holatlaridan kelib chiqib, servitutni belgilash zarurligini aniqlashi mumkinligi bilan izohlanadi. Shu sababli, yer uchastkasining mulkdori (u o'z mulkidan mustaqil foydalanishga bo'lgan qiziqishni yo'qotmasligi kerak, chunki uni saqlashning asosiy yukini o'z zimmasiga oladi) va uchinchi shaxslarning manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash masalasi sudning ixtiyoriga ko'ra amalga oshiriladi.

Yer kodeksining 36-moddasi 8-bandi esa muqobil norma sifatida tuzilgan, unga ko'ra, yer uchastkasidan tuproq unumdorligi pasayishiga, uning kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishiga, ekologik vaziyatning yomonlashuviga olib keladigan usullar bilan foydalanilgan butun yer uchastkasiga yoki uning bir qismiga egalik qilish huquqi yoxud undan doimiy yoki muddatli foydalanish huquqi, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqi majburiy ravishda bekor qilinadi.

Yer uchastkasini olib qo'yish to'g'risidagi da'voni qondirish uchun sudda sanab o'tilgan faktlardan kamida bittasini tasdiqlash kifoya. Agar da'vo arizasida yuqorida ko'rsatilgan faktlarning bir emas, balki bir nechitasi bo'lsa, ularning barchasi sud majlisida tekshirilishi va baholanishi lozim bo'lib, sud qarori faqat sud tomonidan aniqlangan deb hisoblangan holatlarga asoslanadi.

Shu bilan birga, Fuqarolik protsessual kodeksining 80-moddasiga binoan, sud tomonidan har bir dalil aloqadorlik, maqbullik va ishonchlilik nuqtai nazaridan, dalillarning majmui esa yetarlilik nuqtai nazaridan baholanishi lozim.

1) *Dalilning nizo predmeti bo'yicha ushbu yer nizosiga aloqadorligi* (Fuqarolik protsessual kodeksining 73-moddasi). Yer to'g'risidagi nizoni ko'rib chiqishda sud faqat ish uchun ahamiyatli bo'lgan dalillarni qabul qiladi. Masalan, yo'qotilgan hosilning tannarxini undirishda tuproq qoplami, suv-tuz rejimi va boshqa xususiyatlarga ega bo'lgan qo'shni dalalarning hosildorligi bo'yicha materiallar hisobga olinmaydi. Tegishli dalillarni aniqlashdagi qiyinchilik shundan iboratki, sudya birinchi navbatda faktning dalil predmetiga tegishliligini aniqlashi kerak, so'ngra dalil mazmuni va ushbu fakt o'rtasida bog'liqlik mavjudligini tekshirishi lozim;

2) *Dalillarning maqbulligi* (Fuqarolik protsessual kodeksining 73-moddasi).

Noyabr, 2024-Yil

Masalan, qonunda yozma ravishda tuzilishi kerak bo'lgan shartnomaning huquqiy shaklini buzish yer nizosi taraflarini guvohlarning ko'rsatmalariga murojaat qilish imkoniyatidan mahrum qiladi;

3) *Dalillarning ishonchliligi.* Agar ishda soxta hujjat yoki yolg'on ma'lumot aniqlansa, sud uni dalillardan olib tashlaydi;

4) *Dalillarning qonuniyligi.* Hujjatlarga yoki boshqa yozma dalillarga baho berishda sud boshqa dalillarni inobatga olgan holda, bunday hujjat yoki yozma dalil shu turdagi dalillarni taqdim etishga vakolatli bo'lgan organ tomonidan berilganligiga, hujjatni imzolab tasdiqlash huquqiga ega shaxs tomonidan imzolanganligiga, mazkur turdagi dalilning boshqa barcha ajralmas rekvizitlar mavjudligiga ishonch hosil qilishi shart.

5) *Dalillar majmuining yetarliligi.* Agar nizodagi holatni isbotlash uchun dalillar yetishmasa, ushbu yer nizosi bo'yicha o'z da'volari yoki e'tirozlarini asoslash sifatida ko'rsatayotgan holatlarni isbotlovchi taraf ushbu holatlarni barcha kelib chiqadigan oqibatlar bilan isbotlay olmagan deb hisoblanadi. Masalan, agar yer uchastkasini ijaraga berish muddatini uzaytirishning ustuvor huquqi to'g'risidagi nizoni ko'rib chiqayotganda, ijarachi oldingi shartnoma majburiyatlari bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarganligini isbotlay olmasa, u ushbu imtiyozdan mahrum bo'ladi.

Masalan, qo'shni yer uchastkalarining chegaralari to'g'risidagi nizolarda taraflarning, uchinchi shaxslarning tushuntirishlari, guvohlarning ko'rsatmalari, shuningdek, nizoli yer uchastkalarining sud tomonidan bevosita tekshirilishi yo'l qo'yiladigan dalil hisoblanadi, lekin aksariyat hollarda yerdan foydalanishning amalda belgilangan tartibida manfaatdor shaxsning huquqlari buzilganligi yoki yo'qligi to'g'risidagi sud xulosalari uchun asos sifatida ulardan foydalanish mumkin emas. Buning sababi shundaki, chegaralarning joylashishini (ularning huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilishini) aniqlash huquqni tasdiqlovchi hujjatlar va yer uchastkalarini ko'zdan kechirishni (maxsus bilim va vositalardan foydalangan holda) talab qiladi.

Nizoni to'g'ri hal qilish uchun yer uchastkalarining chegaralarini burilish nuqtalarining koordinatalarini ko'rsatadigan yer uchastkalarining rejalarini tuzish orqali aniq belgilash kerak.

Manfaatdor shaxs tutash yer uchastkalarining chegaralari to'g'risidagi nizoda o'z huquqlari buzilganligi faktini tasdiqlash uchun o'z yer uchastkasi chegaralarining matn va grafik qismlardan iborat rejasini dalil sifatida taqdim etishi shart. [5]

Yerga oid nizoda isbotlash jarayoni murakkab tuzilishga ega bo'lib, uning tarkibida quyidagi elementlarni ajratib ko'rsatish zarur:

Noyabr, 2024-Yil

➤ ushbu yer nizosida haqiqatda sodir bo'lgan faktik ma'lumotlar. Masalan, ijaraga yer uchastkasini olish uchun mahalliy hokimiyatga murojaat qilish fakti; yer uchastkasi egasining ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatiga qo'shni yerdan foydalanuvchining aralashuvi fakti; yerdan foydalanish chegaralarini buzish fakti va boshqalar;

➤ isbotlashning maqbul usullari bilan ushbu faktik ma'lumotlarni hujjatli usulda va boshqa ma'lumotlar bilan tasdiqlash. Masalan, guvohlik; dalolatnoma shaklidagi yozma dalillar, yerdan foydalanuvchiga yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda qoplash to'g'risidagi tilxat; ashyoviy dalillar va boshqalar;

➤ yer nizolari bo'yicha dalil bo'lgan faktik ma'lumotlarning yozma dalillarini sud jarayoniga kiritish. U ikkita asosiy usulda amalga oshiriladi:

1) da'vo arizasini sudga berishda faktik ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilish va ushbu hujjatlarning barcha tafsilotlarini da'vo arizasida qayd etish bilan;

2) yer nizolarini ko'rib chiqish paytida. Bunday holda, qo'shimcha hujjat taqdim etish tashabbuskori hujjatni qo'shish to'g'risida iltimosnoma berishga majburdir va uni kiritish faqat sudning ishda dalil sifatida qo'shimcha hujjatni kiritish to'g'risidagi ajrimi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Shu bilan birga, yerga oid nizolarni hal qilishda isbotlanishi mumkin bo'lmagan barchaga ma'lum bo'lgan faktlar qatoriga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mavsumiy xususiyati bilan bog'liq faktlar kiradi (qoida tariqasida, ekish bahorda, yig'im-terim kuzda amalga oshiriladi, hosil yiliga bir marta pishib yetiladi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mavsumiyligi, qurg'oqchilik hosilning yo'qolishiga olib kelishi mumkinligi, nizo yuzaga kelgan davrda sodir bo'lgan tabiiy ofat, ushbu hududni favqulodda holat zonasi deb e'lon qilish, ma'lum bir davr mobaynida sodir bo'lgan g'ayrioddiy ob-havo sharoiti va boshqalar).

Maqsadlari bo'yicha foydalanilmagan yer uchastkasini olib qo'yish to'g'risidagi da'volarni ko'rib chiqishda sud yer uchastkasidan o'z maqsadi bo'yicha foydalanishni istisno etuvchi hammaga ma'lum faktlarni (masalan, tabiiy yer nizosi holatlariga to'g'ri keladigan davr va joyda sodir bo'lgan ofatlar) hisobga olinishi kerak. Asosiy qoida shundaki, bu haqiqat nafaqat odamlarning keng doirasiga, balki sudning butun tarkibiga ham ma'lum bo'lishi kerak. Muayyan holatni umumiy ma'lum deb tan olish sud tomonidan amalga oshiriladi. Sud bu holatni hammaga ma'lum holat deb tan olmasligi mumkin, bunday holatda tomonlar buni umumiy tartibda isbotlashlari shart.

Noyabr, 2024-Yil

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, agar isbotlash predmetidan umumiy ma'lum bo'lgan faktlarni chiqarib tashlash sudning huquqi bo'lsa, u holda noto'g'ri aniqlangan faktlarni chiqarib tashlash uning javobgarligi hisoblanadi.

Shuningdek, boshqa sud tomonidan chiqarilgan, qonuniy kuchga kirgan hukm yoki sud qarori shu yer nizosini ko'rayotgan sud uchun isbotlanmaydigan dalil sifatida qabul qilinishi shart.

Garchi bunda taraflar sud tomonidan isbotlangan faktni isbotlashdan ozod qilingan bo'lsalar ham, yer to'g'risidagi nizoni ko'rib chiquvchi sudga ushbu hal qiluv qarorining yoki sud hukmining tegishli tartibda tasdiqlangan nusxasini taqdim etishlari shart.

Bundan tashqari, hozirgi axborot texnologiyalar rivojlangan davrda yer bilan bog'liq nizolarni vaqtida va samarali tarzda ko'rib chiqish uchun sudlarda elektron dalillarni rivojlantirish, dalillarni sudlar tomonidan tekshirilishini osonlashtirish va tezlashtirish maqsadida sud tizimida sun'iy intellekt texnologiyalari va dasturlaridan keng tarzda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Sudlarda raqamli vositalardan foydalanish butun dunyoda keng tarqalmoqda. "Kiberadolat" deb ataluvchi vositalar allaqachon AQSH, Osiyo sud tizimlarida joriy qilingan, jumladan, odil sudlovga kirishni osonlashtiradigan, sudlar va advokatlar o'rtasidagi aloqani yaxshilaydigan, sudyalarning hamda sud ma'muriyati faoliyatiga bevosita yordam beradigan sun'iy intellekt tatbiq qilinmoqda.

Doriy Reylingning ta'kidlashicha, sudlarda sun'iy intellektni tatbiq etish sudlarda taraflar taqdim etgan yozma va elektron dalillarni qidirishda samarali yordam beradi. Matnli hujjatlar va fayllardagi ma'lumotlarni qidirish, masalan, katta hajmdagi ma'lumotlarni saralashda yoki katta hajmdagi ma'lumotlar ichidan zarur axborotlarni qidirishda foydalanish mumkin. Bunga misol qilib bugungi kunda Amerika Qo'shma Shtatlarida sud jarayoni boshlanishidan oldin elektron ma'lumotni aniqlash uchun qo'llaniladigan avtomatlashtirilgan "e-discovery"ni aytishimiz mumkin.

E-discovery sun'iy intellektdan foydalangan holda, katta hajmdagi ma'lumotlardan zarur axborotlarni ajratib olishga yordam beradigan mukammal algoritmlar tizimidir. Taraflar qaysi qidiruv so'zlari va kodlashdan foydalanishlari haqida kelishib oladi. Sudya kelishuvni baholaydi va tasdiqlaydi. Bu Qo'shma Shtatlar va Buyuk Britaniya sudlari tomonidan e'tirof etilgan hujjatlarni tekshirish usuli sanaladi. Bu usul qo'lda fayllarni o'rganishga qaraganda tezroq va aniqroqdir.[6]

K.L. Branovitskiy va boshqalar sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish muammolariga to'xtalib o'tgan:

Noyabr, 2024-Yil

a) sud tizimidagi katta ma'lumotlar manbayini sun'iy intellektdan foydalangan holda tartibga solish;

b) sudda sun'iy intellekt orqali ekspert xizmatidan foydalanish muammosi. Sun'iy intellekt texnologiyalari imkoniyatlari "inson" darajasidagi tajribani talab qiluvchi qator funksiyalarni bajarishga imkon beradi. Bunday funksiyalar jarayon ishtirokchilariga tegishli ekspert bilimlari va baholarini berishi mumkin (ekspert xulosasi yoki ekspert maslahati darajasida amalga oshirilishi mumkin);

d) sud amaliyotini tahlil qilish va prognozlash uchun sun'iy intellektdan foydalanish. Bu huquqni qo'llash sohasidagi muayyan tendensiyalarni aniqlash, sud amaliyotida xato va qarama-qarshiliklarni izlashni ham o'z ichiga oladi;

e) ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish. Masalan, sun'iy intellekt tizimlaridan isbotlash vositalarida (shu jumladan, dalillarni to'plash va tekshirish bosqichida) ham, protsessual hujjatlarni ishlab chiqishda ham faol foydalanish mumkin. Hozirda ushbu jarayonning huquqiy tartibga solishga ta'sirini baholash juda qiyin;

f) dalillarni baholash, ishning faktik holatlari va amaldagi qonunchilikni aniqlash uchun sun'iy intellektdan foydalanish muammosi. Bu huquq normalarini solishtirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ularning iyerarxiyasini aniqlash uchun solishtirish, solishtirilganlar orasidan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan normalar va hujjatlar belgilanishini nazarda tutadi. [7]

Shuningdek, AQShda Wevorce startapi fuqarolarga nikohdan ajratish bo'yicha maslahatlar hamda nikohdan ajratish bo'yicha faoliyatni rejalashtirib beradi. Shuningdek, farzandni o'z tarbiyasida saqlab qolish (Parenting Plan) va mol-mulk, pul mablag'larini bo'lish to'g'risidagi masalalarni hal qiladi. [8] Yurtimizda ham yer mojarolarini hal qilishda yerlarni konkret tartibda bo'lish masalalarni hal qiladigan, yer uchastkasi va yer uchastkasi bilan bog'liq dalillarni joyida ko'zdan kechirishda ishtirok etadigan sun'iy intellektga asoslangan robotlar yaratish dalillarga to'g'ri baho berishga yordam beradi.

Qolaversa, Xitoy sudlarida dalil sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan shaxsiy xabarlar yoki ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar sun'iy intellektdan foydalangan holda tekshiriladi.

Intelligent Trial 1.0 deb nomlangan ilova elektron sud materiallarini tekshirish va sud ishi hujjatlarini ishlab chiqish orqali sudyalarning ish yukini kamaytirmoqda. [9]

Shu bilan birga, sun'iy intellekt dalillarni solishtirish orqali sud qarorlari loyihalari bo'yicha og'ishlarni tahlil qilishi mumkin.

Noyabr, 2024-Yil

Demak, yer to'g'risidagi nizoda taqdim etilgan dalillar sud tomonidan har tomonlama, to'liq va xolisona tekshirilishi kerak. Bunday holda, hech qanday dalil sud uchun oldindan belgilangan kuchga ega emas.

Shuningdek, dalillarni baholash har bir sudya tomonidan uchta omilni hisobga olgan holda amalga oshiriladi: qonun, har bir sudyaga individual xos bo'lgan huquqiy ong va ishni ushbu qarorda ko'rib chiqish natijasida sudyada shakllangan ichki ishonch.

REFERENCES

1. "Agar aql bilan ish tutsak, O'zbekistonni O'zbekiston yeri bilan boqsa bo'ladi" — prezident.
<https://www.gazeta.uz/oz/2021/06/04/land-law/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
3. M.M.Mamasiddiqov, Z.N.Esanova, D.Y.Xabibullayev. Fuqarolik protsessual huquqi. Yuridik kollej o'quvchilari uchun darslik. -Toshkent, nashriyoti, 2019. – 48 b.
4. Власов А.А. Гражданское процессуальное право. Верховный суд Российской Федерации, Высший Арбитражный суд Российской Федерации, Российская Академия правосудия. Учебник. –М.: 2003. -90 с.
5. Справочник по доказыванию в гражданском судопроизводстве / Дегтярев С. Л. [и др.]; под ред. И. В. Решетниковой. 5-е изд., доп. и перераб. М. : Норма: НИЦ ИНФРА-М, 2011. С. 253.
6. URL: www.iacajournal.org/articles/10.36745/ijca.343/
7. Branovitskiy K.L. i drugie. Sifrovûe texnologii v sivilisticheskom protsesse: nekotôrûe problemû i perspektivû. <https://www.researchgate.net/publication/336408856/9>. Sourdin T. Judge v robot? Artificial intelligence and judicial decision-making// UNSW Law Journal/ 2018 at page 1123.
8. URL: <https://wefunder.com/wevorce>
9. URL: <https://www.worldgovernmentsummit.org/observer/articles/2017/detail/could-an-ai-ever-replace-a-judge-in-court>